

**CHINNIGULDOSHLAR (CARYOPHYLLACEAE) OILASI AYRIM
VAKILLARINING O'SISH SHAROITLARI.**

*Raxmatullayeva Mahzuna Abdulatif qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti
Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya kafedrasи o'qituvchisi
raxmatullayevamahzuna@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Chinniguldoshlar (*Caryophyllaceae*) oilasi vakillarining o'sish sharoitlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: namlik, unuvchanlik, o'sish energiyasi.

Анотация: В этой статье представлены данные об условиях выращивания представителей семейства гвоздичных (*Caryophyllaceae*).

Ключевые слова: влага, всхожесть, энергия роста.

Annotation: This article provides information on the growing conditions of Representatives of the Carnation family (*Caryophyllaceae*).

Keywords: moisture, solubility, growth energy.

Ma'lumki, o'simlik turlarining urug'lari unuvchanligini turli muddatlarda saqlash qobiliyatiga ega. Unuvchanlik urug'larning muhim xususiyati bo'lib, ko'p omillarga (genotipi, harorat, namlik, morfologik va fiziologik xususiyatlariga, saqlash muddati hamda sharoitlariga va h.) bog'liqdir.

Tashqi muhit omillarining ta'siri asosan o'simlik rivojlanishining dastlabki davridayoq namoyon bo'ladi, chunki bu davr moddalar almashinuvining jadalligi bilan tavsiflanadi. Urug'larning unish davridagi fiziologik va biokimyoiy jarayonlarning xarakteri o'simtalarning shakllanishi, ularning o'sishi va rivojlanishi, pirovardida hosildorligiga ham ta'sir qiladi. Urug'larning sifati va unishi o'simliklarning biologik xususiyatlari va yetishtirish sharoitlariga bog'liqdir.

Ma'lumki, urug'larning unishi murakkab jarayon bo'lib, uni uchta bosqichga bo'lish mumkin: suvni shimishi, unuvchanligi va o'sishi. Bu fiziologik holatlar bir populyatsiyadagi va bir urug' namunasida ham o'zaro farqlanadi.

Suvni shimish urug' unib chiqishida asosiy jarayon bo'lib, suv miqdori muayyan darajaga yetganda boshlanadi. Suvning miqdori dukkakli o'simliklarda 47-59 % (ho'l massaga nisbatan), g'alla ekinlarida 28-47 %, moyli ekinlarda 44-62 % bo'lganida unish jarayonlari boshlanadi. Shu bois urug'larni suvda ko'p muddat ushlab turish ham, ularni yetarli miqdorda suv shimishini ta'minlamaslik ham ularning normal unishiga salbiy ta'sir qiladi.



1-rasm. *Dianthus L.* turkumiga mansub turlar urug‘larining laboratoriya sharoitida undirish jarayoni

Dastlabki bosqichida chinnigulning turli muddatda ekilgan o‘simliklaridan olingan urug‘larining unuvchanligi va o‘sish energiyasi aniqlandi. Olingan natijalar 1.1-jadvalda keltirilgan.

1.1-jadval

Chinnigul urug‘larini saqlash muddatlarining ta’siri, %

Saqlash muddatlari, yil	Urug‘larning unuvchanligi, %	O‘sish energiyasi, %	Dala unuvchanligi, %
1	$91,8 \pm 4,4$	$54,7 \pm 2,6$	$67,7 \pm 3,2$
2	$90,6 \pm 4,3$	$53,1 \pm 2,7$	$66,5 \pm 3,1$
3	$86,1 \pm 4,3$	$51,0 \pm 2,5$	$61,2 \pm 3,0$
4	$60,3 \pm 2,9$	$38,2 \pm 1,9$	$45,6 \pm 2,3$



2-rasm. Laboratoriya sharoitida *Dianthus L.* turkumiga mansub Turk chinnigullari urug‘larining laboratoriya sharoitida unishi

Tadqiqot natijalariga ko‘ra turli muddatlarda saqlangan chinnigul o‘simpligini urug‘larining sifat ko‘rsatkichlari turlichaligi aniqlandi. Bir yil saqlangan chinnigul o‘simpligining laboratoriya sharoitidagi unuvchanligi 91,8 % ni, o‘sish energiyasi 54,7 % va dala unuvchanligi 67,7 % ni tashkil qildi. Ikki yil saqlangan chinnigul o‘simpliklari urug‘larining unuvchanligi 90,6 % ga, o‘sish energiyasi 53,1 % ga va dala unuvchanligi 66,5 % ga teng bo‘ldi. Uch yil mobaynida saqlangan chinnigul urug‘lariniing unuvchanligi 86,1 % ni, o‘sish energiyasi 51,0 % ni va dala unuvchanligi 61,2 % ni tashkil qildi. Chinnigul o‘simpligining 4 yil mobaynida saqlangan urug‘larining laboratoriya sharoitidagi unuvchanligi 60,3 % ga, o‘sish energiyasi 38,2 % va dala sharoitidagi unuvchanligi 45,6 % ga teng bo‘ldi. Olingan natijalarga ko‘ra urug‘lik material sifatida uch yilgacha saqlangan urug‘lardan foydalanish zarur. Shu bois keyingi tadqiqotlarimizda bir yil saqlangan chinnigul o‘simpligining urug‘laridan foydalanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Бўриев Х.И., Абдурахманов Л., Жононбекова А. Гулчилик. – Тошкент: Мехнат, 1999. – 238 б.
- Экология и акклиматизация растений. - Екатеринбург, 1998. - 199 с.
- Левко Г.Д. Теоретическое обоснование и практическое использование методов селекции и семеноводства цветочных культур. – Дис. доктора сельхознаук, - М. 2009. – 312 с.
- Мутигуллина Ю.Р. Адаптационные особенности рода *Dianthus L.* (гвоздика) во флоре Центрального Предкавказья // дис. ... канд. биол. наук. – Москва, 2009. – 133 с.